



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 2-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



**Ichki bo'shliqdan haqiqatgacha: Tolstoyning "Iqrornoma"siga yangi nigoh
Otaxonova Shahlo Otaxon qizi,**

University of Business and Science,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asari insonning ichki ruhiy inqirozi, hayot ma'nosini yo'qotish va o'zlikni anglash jarayoni nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarda iqrornoma tushunchasi oddiy aybni tan olish emas, balki insonning o'zi bilan yuzma-yuz kelishi, ichki iztiroblarini tan olishi va haqiqatni izlash yo'li sifatida talqin etiladi. Muallif Tolstoyning ilm, din, e'tiqod va oddiy insonlar hayotiga munosabatini ochib berar ekan, asarning falsafiy va ma'naviy ahamiyatini yoritadi. Maqolada "Iqrornoma"ning o'quvchini o'z hayoti, e'tiqodi va ichki dunyosi haqida chuqur mulohazaga chorlaydigan asar ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Iqrornoma, ichki inqiroz, o'zlikni anglash, hayot ma'nosi, ruhiy bo'shliq, e'tiqod, ilm va din, ichki sud, oddiy inson falsafasi, ma'naviy uyg'onish.

АННОТАЦИЯ. В данной статье произведение Льва Толстого «Исповедь» рассматривается как философско-духовное осмысление внутреннего кризиса человека и поиска смысла жизни. Понятие исповеди трактуется не как простое признание вины, а как глубокий процесс самопознания и честного диалога личности с собственной совестью. Анализируются размышления Толстого о науке, вере, религии и жизненном опыте простых людей. В статье показано, что «Исповедь» является не только личным переживанием автора, но и универсальным текстом, побуждающим читателя к размышлению о собственной жизни и духовных ценностях.

Ключевые слова: Исповедь, внутренний кризис, самопознание, смысл жизни, духовная пустота, вера, наука и религия, внутренний суд, философия простого человека, духовное пробуждение.

ANNOTATION. This article analyzes Leo Tolstoy's Confession as a philosophical and spiritual reflection on inner crisis and the search for the meaning of life. The concept of confession is interpreted not merely as an admission of guilt, but as a profound act of self-examination and honest confrontation with one's inner self. The paper explores Tolstoy's views on science, faith, religion, and the moral strength of ordinary people. It emphasizes that Confession is not only a personal testimony of the author, but also a universal work that encourages readers to reflect deeply on their own existence, beliefs, and inner struggles.

Keywords: Confession, inner crisis, self-awareness, meaning of life, spiritual emptiness, faith, science and religion, inner judgment, philosophy of ordinary life, spiritual awakening, edited

Inson hayotida shunday bir pallalar bo'ladiki, u tashqi tomondan muvaffaqiyatli, jamiyat nazarida baxtli bo'lsa-da, ichki dunyosida chuqur



bo'shliqni his qiladi. Bu bo'shliqni na boylik, na shuhrat, na bilim to'ldira oladi. Aynan ana shunday ruhiy holat insonni o'z hayotiga boshqacha nigoh bilan qarashga, o'ziga savol berishga majbur qiladi. Bu savollar esa oddiy emas — ular insonning mavjudligi, yashash sababi va hayot ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi. Lev Tolstoyning Iqornoma asari ana shu ichki burilishning chuqur falsafiy ifodasidir. Asar nomining o'zi uning mohiyatini ochib beradi. "Iqornoma" — bu oddiy hikoya yoki xotiralar to'plami emas. Bu insonning o'zi bilan yuzma-yuz kelishi, o'z qalbining eng qorong'i nuqtalariga qo'rqmasdan qarashi demakdir. Iqor bu yerda aybni tan olish bilan cheklanmaydi, balki o'zini aldagan hayotdan voz kechish, ichki haqiqatni tan olish jarayoniga aylanadi.

Tolstoy bu asarda o'zini oqlashga urinmaydi. Aksincha, u o'zining ruhiy tushkunligini, o'limdan qo'rqishini, hayotda ma'no topa olmay qiynalganini ochiq bayon qiladi. U boylik va shuhrat tashqi tomondan qulaylik yaratgan bo'lsa-da, qalbida bo'shliqni yanada kuchaytirganini tan oladi. Eng muhim jihati shundaki, yozuvchi o'zini chin e'tiqoddan uzoqlashib ketgan inson sifatida ko'rsatishdan ham cho'chimaydi. Bu ochiqlik asarni haqiqiy iqornoma darajasiga ko'taradi. Asar davomida o'quvchi Tolstoyning ichki sud jarayoniga guvoh bo'ladi. Bu sudda u hech kimni ayblamaydi. Jamiyat, tarix, cherkov yoki boshqa insonlar bu jarayonda oqlovchi vosita sifatida ko'rsatilmaydi. Aksincha, u o'z ruhiy qulashini, ichki izdan chiqishini asosiy ayb sifatida tan oladi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, insonning eng murakkab vazifasi boshqalarni emas, balki o'zini yozish, o'zining ichki qorong'uligi bilan yuzlashishdir.

Tolstoy uchun iqor — ojizlik belgisi emas, balki anglash jarayonidir. U ilmga murojaat qiladi, ammo ilmning chegaralarini ham aniq ko'rsatib beradi. Ilm insonning ko'plab savollariga javob bera oladi, lekin hayotning ma'nosi haqidagi savollarga kelganda ojiz qoladi. Ilm dunyoni tushuntiradi, ammo nima uchun yashash kerakligini aytmaydi. Shu sababli faqat mantiqqa tayangan hayot oxir-oqibat insonni ma'nosizlik girdobiga olib kiradi. Tolstoyning ruhiy inqirozi ham aynan shu nuqtadan boshlanadi.

Asarda din masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tolstoy diniy javoblar mantiqan mukammal bo'lmasligi mumkinligini tan oladi, ammo ularning bir ustun jihatini alohida ta'kidlaydi: diniy javoblar inson hayotini cheksiz ma'no bilan bog'laydi. Hayot, o'lim va abadiylik o'rtasidagi bog'liqlik aynan shu nuqtada ochiladi. Yozuvchi uchun muhim bo'lgan narsa — aql bilan emas, qalb bilan his qilinadigan haqiqatdir.

Tolstoy oddiy odamlar hayotiga qarab, chin ma'no qayerda yashiringanini anglay boshlaydi. Unga ko'ra, hayotning asl mazmuni hashamatli hayotda emas, balki halol mehnat, soddalik va ishonch bilan yashayotgan insonlarning qalbida mujassam. Bu odamlar hayotni murakkab falsafiy muammo sifatida emas, inson bo'lish san'ati sifatida qabul qiladi. Ular uchun yashash — doimiy savollar berish



emas, balki hayotni qabul qilish va davom ettirishdir. Bu qarash zamonaviy inson uchun chuqur o'ylantiruvchi haqiqat bo'lib ko'rinadi.

"Iqrornoma" o'quvchini befarq qoldirmaydi. Asar insonni o'z ichki olamiga nazar tashlashga majbur qiladi. Inson o'zi bilan yolg'iz qolganida kimga aylanadi? U nimaga tayanadi? Nega yashayapti? Bu savollar asarning markaziy yo'nalishiga aylanadi. Tolstoy o'quvchiga tayyor javob bermaydi, balki uni o'ylashga, ichki suhbatga chorlaydi.

Asar oxirida tasvirlangan tush manzarasi ham chuqur ramziy ma'noga ega. Qahramonning havoda muallaq holatda qolishi — insonning eski tayanchlardan uzilib, yangi ma'no izlayotgan holatini ifodalaydi. Tubsizlik qarshisidagi qo'rquv — ma'nosiz hayotdan, ichki bo'shliqdan qo'rquvdir. Yuqoridan kelayotgan kuch esa insonni yana yashashga undayotgan ichki ishonch, e'tiqod ramzidir.

Bu asar yozuvchi tomonidan shu qadar chuqur ma'no va mazmun bilan yaratilganki, unda markaziy o'rinda turgan "o'zlikni anglash" yoki "iymonga qaytish orqali najot topish" g'oyasi, aslida, insonni eng avvalo birlikka chorlaydi. Asar o'quvchini hamdardlikka, o'zaro tushunishga va bir-biriga yaqin bo'lishga da'vat etadi. Yozuvchi hatto inson o'ziga ma'qul bo'lmagan holatlarda ham jamoa bilan kelishilgan holda yo'l tutishi zarurligini ta'kidlaydi. Chunki inson yolg'iz holda Xudoning haqiqatigacha yetib bora olmaydi. Bu fikrlar asarda keltirilgan quyidagi jumlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi:

"Xudoning haqiqatiga bir odam yolg'iz o'zi erisha olmaydi, u bir-birlari bilan muhabbat orqali bog'langan odamlar majmuigagina namoyon bo'lishi mumkin. Haqiqatni tanimoq uchun bo'linmaslik kerak; bo'linmaslik uchun esa bir-birlarimizni sevmok lozim va o'zing rozi bo'lmagan narsa bilan murosa qilmoq zarur. Haqiqat sevgi qarshisida jamol ko'rsatadi; shundoq ekan, agar sen cherkov marosimlariga bo'ysunmasang, sevgiga shikast yetkazgan bo'lasan, sevgiga shikast yetkazish bilan esa haqiqatni tanish imkonidan mahrum bo'lasan"[1, 145.146]

"Iqrornoma" yakunlangan haqiqat emas, balki boshlanayotgan yo'ldir. Bu yo'l har kim uchun turlicha davom etadi. Har bir o'quvchi bu yo'lda o'z qadamini o'zi tashlaydi. Asar majburlamaydi, ammo chuqur o'ylashga majbur qiladi. U insonni o'zini tan olishga, ichki iztiroblarini yashirmaslikka va zaiflikdan uyalmay qarashga chorlaydi. Chunki inson faqat o'zini tan olganidagina ichki ozodlikka erisha oladi.

Tolstoyning ushbu asarida shunday jumlar borki, inson uni qayta-qayta o'qish jarayonida turli xulosaga kelishi mumkun: - "Oqilona ilmlardan mening savolimga javob izlab bo'lmas edi, oqilona ilmlar tomonidan beriladigan javob masala boshqacha qo'yilgan tarzdagina, faqat mulohazalar doirasiga cheksiz narsaga cheklangan narsaning munosabati haqidagi masala jalb qilingan taqdirdagina javob olish mumkinligiga ishora bo'lardi, xolos. Men yana angladimki, din tomonidan beriladigan javoblar har qancha aqlga nomuvofiq va xunuk bo'lmasin, ular bir afzallikka ega: ularda har bir javobga cheklangan



narsaning cheksiz narsaga munosabati kiritilgan. Axir, busiz javobning bo'lishi mumkin emas-da! Men "qanday yashamog'im kerak?" degan savolni qo'yishim bilan "Xudoning qonunlariga amal qilib," degan javobni olaman. "Mening hayotimdan qanaqa bir chinakam narsa kelib chiqadi?" degan so'roqqa "Mangu azob-uqubat yoki mangu rohat-farog'at," degan javob olaman. "Hayotimda o'lim mahv etolmaydigan qanday ma'no bor?" "Haqning jamoliga erishish, cheksiz Xudoga qo'shilish, jannat ..." [1, 124] Tolstoy bu orqali o'zining ilmga bo'lgan ishonchini qayta ko'rib chiqadi. U ilmni rad etmaydi, ammo ilmning ma'naviy bo'shliqni to'ldira olmasligini ochiq tan oladi. Ilm bizga dunyoni tushuntiradi, lekin nega unda yashashimizni aytmaydi. Nega savollar ichida qolish jarayonidan olib chiqolmaydi

Bu yerda bir haqiqat ochiladi: Faqat mantiq bilan yashagan odam yashash sababini yo'qotadi. Tolstoyning ruhiy inqirozi ham aynan mana shu nuqtadan boshlangan. Tolstoyning fikricha, chin ma'no saroylarda emas, mehnat bilan kun ko'rayotgan oddiy odamlarning qalbida yashaydi. Ular o'z hayotini soddalik, halollik va tavakkul bilan davom ettiradi. Ular hayot murakkab degan xulosaga kelmaydi, chunki ular hayotni inson bo'lish san'ati sifatida qabul qiladi.

Bu qarash zamonaviy odam uchun o'ylantiruvchi bo'lib, Ba'zan eng katta donolik eng oddiy hayot tarzida yashiringan bo'ladi. Bu fikrlarim isboti etib Tolstoyning ushbu jumlarini bayon etish mumkun: "Ular qat'iy ishonadilarki, bularning hammasi xuddi shundoq bo'lmog'i kerak, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, bularning bari - Xudoning ne'mati." [1, 132]

Xulosa

Iqrornoma bizga bir narsani o'rgatadi insonning eng katta yo'li — tashqi dunyoga emas, o'z qalbiga qiladigan safaridir. Tolstoy bu sayohatda og'riqni yashirmaydi, shubhalardan voz kechmaydi va hatto o'zining eng zaif joylarini ko'rsatishdan ham qochmaydiva uyalmaydi.

Shu sababli asar o'quvchini o'ylashga undaydi O'zini tan olish — tanazzul emas, balki tiklanishning boshlanishidir degan g'oyani ilgari surishga majbur qiladi "Iqrornoma"ning kuchi ham shunda u shaxsiy iztiroblar haqida yozilgan bo'lsa-da, har bir o'quvchining o'z iztiroblarini o'yg'a soladi. Tolstoyning qutulishi ham o'quvchini ham tan olish orqali qutulishga chorlaydi.

Bu asar orqali Tolstoy odamning eng qiyin dushmani — o'zi ekanini ko'rsatadi. Ammo o'zini tanishga jur'at qilgan odam eng katta g'alabaga erishadi hayotining ma'nosini qaytadan topadi.

"Iqrornoma" o'quvchini ham shu yo'lga chorlaydi — tashqi dunyoni emas, o'z qalbini tinglashga, hayotga bo'lgan qiziqishiga, ya'ni Tolstoy o'zining "Iqrornoma" sida aytganidek - "Men faqat Xudoga ishongan kezlarimdagina yashaganimni esladim. "Avvallari bo'lgani kabi hozir ham, - derdim o'zimga-o'zim, - Xudoni tan olishim bilan menga jon kiradi, yashay boshlayman, uni unutsam, unga ishonmay



qo'ysam, darhol o'la boshlayman." [1, 140] - degan jumlarini misol tariqasida olishimiz mumkin.

Asar songida bayon etilgan qahramonning tush ko'rishi ham o'zga bir olam deb ayta olamiz sababi shundaki uning havoda muallaq turishi-yu poyonsin samodan olayotgan kuchi va tubsizlik qaridagi qo'rqinchi ham har bir kitobxonni mulohaza qilishga majbur etadi. Uning uyg'onish jaroyini yaqinlashish arafasidagi allakimning "Buni ko'rib, eslab qol" [1, 159] degan hayqirig'i ham hotirjamlik va ishonch tuyg'ularini mustahkamlashga katta xizmat qiladi. "Iqrornoma" insonning o'ziga qaytish yo'lini ko'rsatadigan asardir. Eng uzoq safar — tashqi dunyoga emas, o'z qalbiga qilinadigan safardir. Tolstoy bu safarni og'riq, shubha va iztirob orqali bosib o'tadi, ammo aynan shu yo'l uni haqiqatga olib keladi. Shu sababli uning iqrori shaxsiy bo'lsa-da, umumiy ahamiyat kasb etadi. Bu asarning kuchi shundaki, u baland ovozda nasihat qilmaydi, lekin chuqur ta'sir ko'rsatadi. U insonni majburlamaydi, ammo sukut orqali uyg'otadi. Va eng muhimi, u shuni eslatadi: inson o'zini tan olishga jur'at qilgan lahzadan boshlabgina haqiqiy yashay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolstoy Lev. Iqrornoma. — Toshkent: Turon Zamin nashriyoti, 2025.
2. Rus adabiyoti tarixi. XIX asr bo'limi. — Toshkent: Fan, 2012.
3. Tolstoy Lev. (1882) Iqrornoma. — Moskva, 1882.
4. Jahon adabiyoti tarixi. XIX asr adabiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Tolstoy Lev. Hayot yo'li. — Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
6. Jahon adabiyoti tarixi. XIX asr rus adabiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.